



KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SOHASIDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI.

Mo'minova Dilnoza Muhiddin qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11207672>

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi xorijiy davlatlarning korrupsiyaga qarshi kurashish tajribasini o'rganish, ularning o'ziga xos xususiyatlari, korrupsiya darajasi past bo'lgan davlatlar qanday prinsiplarga tayangan holda ish olib borishi, AQSh, Singapur, Finlandiya va Xitoy singari davlatlardagi korrupsiya qarshi kurashish bo'yicha turli xil natijali tajribalar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: korrupsiya, korrupsiyaviy jinoyatlar, korrupsiyaga qarshi kurashish, poraxo'rlik, xorijiy tajriba.


Korrupsiya – davlatlarning rivojlanishiga jiddiy ta'sir etadigan xavfli illat hisoblanadi. Har bir mamlakatda korrupsiyaning turli shakllari va ularga beriladigan ta'riflar juda ko'p. Yer yuzida mavjud bo'lgan har bir mamlakat o'zining imkoniyatidan kelib chiqqan holda o'ziga xos usullar bilan korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini olib bormoqda. Korrupsiyaga qarshi kurash olib borishning barcha mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan mushtarak usullari mavjud emas. Har bitta mamlakat korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'zining tajribasiga ega.

Mamlakatimiz ilk bor 2008-yil 7-iyuldagi "Birlashgan Millatlar Tashkilotining korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York, 2003-yil 31-oktyabr) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida"gi 158-sonli Qonuni bilan BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga qo'shildi¹. 2010-yilda esa Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti Korrupsiyaga qarshi kurashish tarmog'ining Istanbul harakat dasturi a'zosiga aylandi.

O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik islohotlari asosan 2017-yildan so'ng amalga oshirildi. Jumladan, 2017-yilning 3-yanvarida "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi 419-sonli Qonun qabul qilindi². Ushbu qonun korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi. Natijada davlatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish qonun darajasida mustahkamlab qo'yildi.

¹ O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-iyuldagi "Birlashgan Millatlar Tashkilotining korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York, 2003 yil 31 oktabr) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida"gi 158-sonli Qonuni. <https://lex.uz/docs/-1369505>

² O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni. // <https://lex.uz/docs/-3088008>





Hozirda rivojlangan mamlakatlarda ham korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarlarni uchratish mumkin, lekin ular doimiy ravishda korrupsiya bilan qarshi kurashib keladi va korrupsiya darajasi kamligi bo'yicha jahon reytingida yuqori o'rinlarda turadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda AQSh davlatining tajribasi o'ziga xos xususiyatga ega. "Jinoyatlar va jinoiy ish yuritish" deb nomlangan AQSh kodeksining 18-bobi 201-moddasida mansabdor shaxslar yoki guvohlarning poraxo'rliqi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Unga binoan, pora olish va berishdan tashqari, pora taklif qilish, va'da qilish, pora so'rash va porani olishga rozilik bildirish ham jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi³.

1990-yilda AQShda qabul qilingan "Davlat xizmatchilari va amaldorlarining axloq qoidalari prinsiplari" to'g'risidagi, 1978-yildagi "Davlat muassasalari axloq qoidalari to'g'risida"gi, 1970-yilda "Rekret, bosim o'tkazish, korrupsiya va uyushgan jinoyatchilik bilan kurashish to'g'risida"gi federal qonunlar tizimining mohiyati jinoiy tashkilotlar a'zolariga va korrupsionerlarga nisbatan konfiskatsiya institutini qo'llashni va yuridik shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortishdan iborat⁴. Mazkur qonunlar tizimi RIKO qonunlari deb nomlanadi. AQShda aynan mazkur qonunlarni qo'llash orqali korrupsiya, uyushgan jinoyatchilik va narkobiznes jinoyatlarining soni tushgan ekan.

Daniya, Finlandiya, Shvetsiya, Yangi Zelandiya, Kanada va Norvegiya ham korrupsiyalashmaganligi jihatdan yuqori o'rinlarda turadigan davlatlardan sanaladi⁵. Mazkur davlatlarda korrupsiya hukumat tomonidan milliy xavfsizlik masalasi, ichki va tashqi xavfsizlikka tahdid soluvchi omil sifatida baholangan.

Xalqaro Transparensy International tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, korrupsiya darajasi eng past bo'lgan davlatlardan biri bu – Yangi Zelandiya hisoblanadi. Yangi Zelandiyada korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar uchun javobgarlik masalasi 1961-yilda qabul qilingan Jinoyatlar aktining oltinchi bo'limi "Qonun va odil sudlovni amalga oshirishga ta'sir qiluvchi jinoyatlar" deb nomlanib, mazkur bo'limda poraxo'rlik va korrupsiya uchun javobgarlik belgilangan⁶. E'tiborli jihati shundaki, mazkur bo'limda har bir davlat amaldorining korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlari uchun javobgarlikka tortish alohida qilib ajratilgan. Jumladan, Aktning 100-bandida sudyalalar va sud

³ Title 18 of the United States Code. <https://uscode.house.gov/browse/prelim@title18&edition=prelim>

⁴ Агеев В.Н. Противодействие «государственной коррупции»: зарубежный опыт. Следователь. – 2008. - № 8. С.7-10.

⁵ <https://www.transparency.org/en/cpi/2020/index/nzl>

⁶ CrimesAct1961. <https://www.legislation.govt.nz/act/public/1961/0043/latest/DLM327382.html>





xodimlarining poraxo'rligi, 102-bandida vazirlarning poraxo'rligi, 104-bandida huquqni muhofaza qilish organi xodimining korrupsiyasi va poraxo'rligi, 105-bandida mansabdor shaxsning poraxo'rligi uchun javobgarlik belgilangan.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda Finlandiya davlatining tajribasi ham diqqatga sazovor hisoblanadi. Bu davlat korrupsiya darajasi eng past bo'lgan davlatlar reytingida kuchli beshtalikdan biri hisoblanadi. Hozirgi paytda Finlandiyada yiliga uchta yoki to'rtta korrupsiya bilan bog'liq jinoyat ishi ko'rilishi e'tirofqa sazovordir. Ushbu holatni 1980-1989-yillarda 130 kishi pora olganlik va pora berganlik uchun javobgarlikka tortilganligi bilan izohlash mumkin.

Finlandiya Jinoyat kodeksida "korrupsiya" atamasi mavjud emas. Poraxo'rlik jinoyatlarining ijtimoiy xavfliligiga qarab jarima yoki 4 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanadi⁷.

Finlandiyada korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha maxsus qonun ishlab chiqilmagan va korrupsiyaviy jinoyatlarning oldini olish bo'yicha alohida organ ham tuzilmagan. Korrupsiyani oldini olishda mamlakat konstitutsiyasi, Jinoyat kodeksi va Fuqarolik xizmati haqidagi qonun va boshqa qonunosti hujjatlari asosiy manbaa hisoblanadi.

Finlandiya davlat xizmatchilarining moddiy jihatdan yaxshi ta'minlanganligi korrupsiyaga yo'l qo'ymaslikning asosiy omili hisoblanadi⁸.

Finlandiyada korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan hujjatlar ijrosi ustidan nazorat mamlakat Prezidenti tomonidan tayinlanadigan, biroq, mutloq mustaqil faoliyat yurituvchi Adliya kansleri va parlament vakili Ombudsman tomonidan olib boriladi. Ular butun hokimiyat tarmoqlari faoliyatini nazorat qilish vakolatiga egalar. Yuqori martabali mansabdor shaxslarni ayblash haqidagi jinoyat ishlari maxsus tashkil etilgan Davlat sudi tomonidan ko'rib chiqiladi. Bu sud hattoki davlat rahbariga nisbatan bo'lgan ishlarni ham ko'rib chiqishi mumkin. Unga – Adliya kansleri, parlament vakili Ombudsman, hukumat vakillari, Oliy sud va ma'muriy sud sudyalari a'zo bo'lishi mumkin. Ikkinchi jahon urushidan keyin Davlat sudi bor –yo'g'i bir marta chaqirilgan xolos.

Alohida ta'kidlash lozimki, Finlandiyada ommaviy axborot vositalari ijtimoiy nazoratning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Hukumat esa, ommaviy axborot vositalariga nafaqat erkinlik yaratib bergan, balki har bir e'lon qilingan

⁷ The Criminal Code of Finland. (39/1889, amendments up to 766/2015 included) https://www.legislationline.org/download/id/6375/file/Finland_CC_1889_am2015_en.pdf

⁸ Zufarov R.A., Axrarov B.J., Mirzayev U.M. Korrupsiya. Qonun. Javobgarlik. Monografiya. – T.: TDYUI Nashriyoti, 2011. – B. 50-51





korruptsiya holati bo'yicha aniq choralarni ko'rib boradi. Finlandiya korruptsiyaga qarshi bir qancha xalqaro hujjatlarga qo'shilgan, xalqaro tashkilotlar va boshqa davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini faol olib boradi.


Hech bir davlat korruptsiyadan va uning zararli oqibatlaridan mutlaqo himoyalangan emas. Shuning uchun har bir davlatning qonunlarida korruptsiyaga qarshi kurashish sohasi eng dolzarb masalalardan biri sifatida ko'rsatilgan.

Xitoy Xalq Respublikasi Jinoyat kodeksining 382-moddasiga ko'ra davlat xizmatchilarining o'z mansab imtiyozlaridan foydalangan holda davlat mulkini o'zlashtirib olishi, o'g'irlashi yoki firibgarlik yo'li bilan olishi yoki boshqacha tarzda o'zlashtirishi korruptsiya deb hisoblanadi. Korruptsiya bilan bog'liq jinoyatlarning og'ir-yengilligiga qarab javobgarlik belgilangan bo'lib, 100 ming yuandan ortiq miqdordagi yakka tartibdagi korruptsiya uchun o'n yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi, mol-mulki musodara qilingan holda muddatsiz ozodlikdan mahrum qilish, jazoni o'ta og'irlashtiruvchi holatlarda – o'lim jazosi belgilangan. Xitoy qonunchiligiga ko'ra, mol-mulki yoki xarajatlari amaldorlarning qonuniy daromadidan oshib ketmasligi lozim. Har qanday davlat amaldori Xitoy tashqarisidagi bankda saqlanuvchi o'z mablag'lari haqida tegishli tartibda davlatga xabar qilishi shart⁹. Xitoy qonunchiligida korruptsiyaga korruptsiyaga qarshi kurashda samarali usullar yo'lga qo'yilgan bo'lib, bunda mansabdor shaxslarning mol-mulki deklaratsiya qilinadi. Agar, ortiqcha qismi qayerdan kelganligini isbotlay olmasa, korruptsiya sifatida baholanadi va mansabdor shaxsning javobgarlikka tortilishiga sabab bo'lar ekan.

Korruptsiya darajasi eng past bo'lgan davlatlar ichida yuqori o'rinlarning birida turgan davlat bu – Singapur hisoblanadi. "Korruptsiyani oldini olish to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasiga asosan o'zi yoki boshqa shaxs tomonidan yoki ular bilan birgalikda har qanday shaxs – o'zi yoki boshqa shaxs uchun pora so'rash yoki olish yoxud olishga rozilik berish yoki har qanday shaxsga yoki uning manfaati uchun pora berish, vada qilish yoki taklif qilish huquqbuzarlikka aybdor bo'ladi va sudlanganda 100 000 dollardan ortiq bo'lmagan miqdorda jarimaga tortiladi yoki 5 yildan ortiq bo'lmagan muddatda ozodlikdan mahrum qilinadi¹⁰.

⁹ Criminal Law of the People's Republic of China. // [Electronic resource].
URL:<https://www.fmprc.gov.cn/ce/cgvienna/eng/dbtyw/jdwt/crimelaw/t209043.htm>

¹⁰ Prevention of corruption Act // [Electronic resource]. URL:
https://publicofficialsfinancialdisclosure.worldbank.org/sites/fdl/files/assets/lawlibrary-files/Singapore_AntiCorruption%20Law_1960%20amended%202002_en.pdf





Singapur qonunchiligiga ko'ra nafaqat pora olish yoki berish uchun, balki porani taklif qilsa yoki ushbu taklifni qabul qilsa, pora so'rsa javobgarlik belgilangan. Bundan tashqari Singapur qonunchiligida poraxo'rlik jinoyatlari pora evaziga amalga oshiriladigan harakatlarning aniq ro'yxatini belgilash orqali chegaralab qo'yilgan.

Singapur korrupsiya illati bilan kurashishda "insonni korrupsiyaga undaydigan holatlarni yo'q qilish"ni asosiy g'oya sifatida ilgari suradi. Bunday g'oyani amalga oshirish uchun bir nechta prinsiplar mavjud:

1. davlat sektorida faoliyat yuritayotgan kishilarning ish haqini xususiy sektorda ishlayotgan shaxslarning o'rtacha oylik ish haqi bilan birxillashtirish;
2. mansabdor shaxslarning har qanday mulkini va daromadlari bo'yicha yillik hisobotni kuzatib, tekshirib borish;
3. yuqori lavozimda faoliyat yuritayotgan mansabdor shaxslarning ma'naviy yuksakligini ta'minlash;
4. iqtisodiy rivojlanishda yuzaga keladigan ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish.¹¹

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, yuqorida tahlil qilingan davlatlarning deyarli barchasida korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarning aniq ro'yxati mavjud bo'lib, mazkur jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligi va ularni sodir etgan shaxslarning egallab turgan lavozimi, jamiyatdagi o'rniga qarab jazo tayinlanadi va bu jazoning adolatliligi, odilligi singari prinsiplarining to'g'ri qo'llanishiga, jamiyatda korrupsiyaning eng past darajaga tushirilishiga xizmat qiladi. Ayrim mamlakatlarda jinoyatning ijtimoiy xavfliligiga qarab jarima jazosidan ozodlikdan mahrum qilish jazosigacha, ayrimlarida esa ozodlikdan mahrum qilish jazosidan o'lim jazosigacha hukm qilinishi belgilangan.

Ko'pgina xorijiy mamlakatlar korrupsion jinoyatlarni oldini olish maqsadida mansabdor shaxslarning mol-mulkini majburiy deklaratsiya qilish, barcha sohalarda jamoatchilik nazoratini amalga oshirish hamda davlat tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning elektron tartibda amalga oshirish tizimini yo'lga qo'ygan. Bu usullarning amaliyotga tatbiq qilinishi va aholining mazkur sohadagi huquqiy ongini yuksaltirish orqali korrupsiyaga qarshi samarali kurashish mumkin.

References:

- 1.O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-iyuldagi "Birlashgan Millatlar Tashkilotining korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York, 2003 yil 31

¹¹ <https://navoiy.sud.uz> Korrupsiyaga qarshi kurashishda rivojlangan davlatlar tajribasi. D.A.Ergasheva ; Jinoyat ishlari bo'yicha Tomdi tuman sud raisi.





oktabr) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida"gi 158-sonli Qonuni.

<https://lex.uz/docs/-1369505>

2.O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni. // <https://lex.uz/docs/-3088008>

3.Title 18 of the United States Code.
<https://uscode.house.gov/browse/prelim@title18&edition=prelim>

4.Агеев В.Н. Противодействие «государственной коррупции»: зарубежный опыт. Следователь. – 2008. - № 8. С.7-10.

5.<https://www.transparency.org/en/cpi/2020/index/nzl>

6.CrimesAct1961.

<https://www.legislation.govt.nz/act/public/1961/0043/latest/DLM327382.html>

7.The Criminal Code of Finland. (39/1889, amendments up to 766/2015 included)

https://www.legislationline.org/download/id/6375/file/Finland_CC_1889_am2015_en.pdf

8.Zufarov R.A., Axrarov B.J., Mirzayev U.M. Korrupsiya. Qonun. Javobgarlik. Monografiya. – T.: TDYUI nashriyoti, 2011. – B. 50-51

9. Criminal Law of the People's Republic of China. // [Electronic resource]. URL:<https://www.fmprc.gov.cn/ce/cgvienna/eng/dbtyw/jdwt/crimelaw/t209043>.

10. Prevention of corruption Act // [Electronic resource]. URL: [https://publicofficialsfinancialdisclosure.worldbank.org/sites/fdl/files/assets/1awlibrary-](https://publicofficialsfinancialdisclosure.worldbank.org/sites/fdl/files/assets/1awlibrary-files/Singapore_AntiCorruption%20Law_1960%20amended%202002_en.pdf)

[files/Singapore_AntiCorruption%20Law_1960%20amended%202002_en.pdf](https://publicofficialsfinancialdisclosure.worldbank.org/sites/fdl/files/assets/1awlibrary-files/Singapore_AntiCorruption%20Law_1960%20amended%202002_en.pdf)

11.<https://navoiy.sud.uz> Korrupsiyaga qarshi kurashishda rivojlangan davlatlar tajribasi. D.A.Ergasheva ; Jinoyat ishlari bo'yicha Tomdi tuman sud raisi.

